

**Togʻ-kon sanoati va geologiya vazirligining
2026-yil I yarim yillikka moʻljallangan
ISH REJASI**

T/r	Ustuvor vazifalar Oʻrganiladigan masalalar mavzusi	Ijro muddati	Mas'ullar
I. “Oʻzbekiston – 2030” strategiyasini “Yoshlarni zamonaviy kasb-hunarga oʻrgatish yili” davlat dasturi hamda Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining yaqin muddatga va uzoq istiqbolga moʻljallangan harakatlar dasturini amalga oshirishga oid ustuvor vazifalar			
1. “Oʻzbekiston – 2030” strategiyasi hamda “Yoshlarni zamonaviy kasb-hunarga oʻrgatish yili” davlat dasturini amalga oshirishga oid ustuvor vazifalar			
1.	“Oʻzbekiston – 2030” strategiyasi boʻyicha 2026-yilda amalga oshirishga oid davlat dasturi doirasida Togʻ-kon sanoati va geologiya sohasi boʻyicha belgilangan chora-tadbirlar ijrosini sifatli tashkil etish.	I yarim yil	Vazir oʻrinbosarlari, boshqarma va boʻlim boshliqlari, vazirlik tizimidagi tashkilotlar rahbarlari
2.	2026-yilda hududlardagi istiqbolli maydonlarda qimmatbaho, rangli va noyob metallarga geologiya-qidiruv ishlarini amalga oshirish maqsadli koʻrsatkichlari bajarilishini samarali tashkil etish.	I yarim yil	Vazir oʻrinbosarlari, Mineral xomashyo bazasini rivojlantirish boshqarmasi, Yer qaʼridan foydalanish va davlat xizmatlari boshqarmasi
3.	Oliy Majlis palatalari murojaatlarini koʻrib chiqish, deputat va senator soʻrovnomalariga oʻz vaqtida javob berish, qonun loyihalarini sifatli ishlab chiqish, Qonunchilik palatasi va Senat qoʻmitalarida hamda yalpi majlisida himoya qilishni taʼminlash.	I yarim yil	Vazir oʻrinbosarlari, boshqarma va boʻlim boshliqlari, vazirlik tizimidagi tashkilotlar rahbarlari
4.	Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining respublika hududlariga tashriflari hamda huzurida oʻtkazilgan yigʻilishlar yakuni boʻyicha tasdiqlangan bayonlardagi topshiriqlar ijrosini sifatli tashkil etish.	I yarim yil	Vazir oʻrinbosarlari, boshqarma va boʻlim boshliqlari, vazirlik tizimidagi tashkilotlar rahbarlari
5.	Togʻ-kon sanoati va geologiya vaziri va uning oʻrinbosarlari faoliyatining 2026-yil uchun eng muhim samaradorlik koʻrsatkichlari (KPI), ularga erishish boʻyicha “yoʻl xaritalari” va hududlarga amalga oshiriladigan chora-tadbirlar dasturlarida belgilangan vazifalarni oʻz vaqtida, toʻliq hajmda va natijadorligiga erishilishini taʼminlash.	har chorak	Vazir oʻrinbosarlari, boshqarma va boʻlim boshliqlari, vazirlik tizimidagi tashkilotlar rahbarlari

T/r	Ustuvor vazifalar O'rganiladigan masalalar mavzusi	Ijro muddati	Mas'ullar
6.	Yer qa'ridan foydalanish uchun 200 ta foydali qazilma obyektlarini "E-auksion" platformasi orqali investorlarga taklif etish.	I yarim yil	R. Yusupov, Mineral xomashyo bazasini rivojlantirish boshqarmasi, "Yer qa'ridan foydalanish markazi" DM
7.	Davlat ishtirokidagi tog'-kon sanoati korxonalarini transformatsiya qilish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar to'g'risida ma'lumotlarni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik islohotlar agentligiga kiritib borish.	I yarim yil	F. Xamidova, Xalqaro hamkorlik va strategik rivojlanish boshqarmasi
8.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining xorijiy mamlakatlarga tashriflari, shuningdek, xorijiy davlatlar va hukumatlar, xalqaro tashkilotlar rahbarlarining O'zbekiston Respublikasiga tashriflari chog'ida imzolangan "Yo'l xarita"larining ijrosini monitoring qilish, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarining ichki davlat tartib-taomillariga muvofiq bajarilishini tashkil etish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni tahlil qilish.	I yarim yil	F. Xamidova, Xalqaro hamkorlik va strategik rivojlanish boshqarmasi, Xalqaro hamkorlik va reytinglar bo'limi
9.	Ikki tomonlama hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha hukumatlararo qo'shma komissiyaning yig'ilishlari doirasida belgilangan vazifalarni sifatli va o'z vaqtida bajarib borilishini ta'minlash.	I yarim yil	F. Xamidova, Xalqaro hamkorlik va strategik rivojlanish boshqarmasi, Xalqaro hamkorlik va reytinglar bo'limi
10.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi "Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-6166-son Farmoni, 2025-yil 25-iyuldagi "Davlat organlari va tashkilotlarda ijro intizomini yanada mustahkamlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" PF-117-son Farmoni hamda 2021-yil 31-maydagi "Ijro.gov.uz" ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-5132-son qarori talablaridan kelib chiqib, vazirlikka belgilangan topshiriqlar ijrosini tashkil etish va so'zsiz va sifatli bajarilishini ta'minlash.	I yarim yil	F. Xamidova, U. Yusupov, Nazorat va ijro intizomi bo'limi, boshqarma va bo'lim boshliqlari, vazirlik tizimidagi tashkilotlar rahbarlari
11.	Foydali qazilmalarni qazib olish natijasida buzilgan yer maydonlarini rekultivatsiya qilish ishlarini tashkil etish. Bunda 1 000 gektar buzilgan yer maydonining rekultivatsiya qilinishini ta'minlash, mazkur sohada ekologik nazorat tadbirlarini amalga oshirishni nazarda tutish.	I yarim yil	R. Yusupov, Yer qa'ridan foydalanish va davlat xizmatlari boshqarmasi, Mineral xomashyo bazasini rivojlantirish boshqarmasi

T/r	Ustuvor vazifalar O'rganiladigan masalalar mavzusi	Ijro muddati	Mas'ullar
12.	Yer osti suvlari ifloslanishining oldini olish va ularni muhofaza qilish, ulardan foydalanish nazoratini hamda monitoringini kuchaytirishni tashkil etish.	I yarim yil	R. Yusupov, Yer qa'ridan foydalanish va davlat xizmatlari boshqarmasi, Gidrogeologiya, muhandislik geologiyasi va geoekologiya bo'limi
13.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2025-2027-yillarda mis mahsulotlarini ishlab chiqarish va ulardan foydalanish balansining asosiy ko'rsatkichlari bajarilishi to'g'risida"gi farmoyishi ijrosini tahlil qilish hamda Vazirlar Mahkamasiga hisobot kiritib borish.	har chorak	U. Yusupov, Qimmatbaho va rangli metallar sohasini rivojlantirish boshqarmasi, "Olmaliq KMK" AJ
14.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining farmoyishi bilan 2026-yilda mis mahsulotlarini ishlab chiqarish va ulardan foydalanish balansining asosiy ko'rsatkichlari bajarilishi to'g'risidagi hisobot har chorak yakunida keyingi oyning 10-sanasidan kech bo'lmagan muddatda Vazirlar Mahkamasiga taqdim etilish.	har chorak (keyingi oyning 10-sanasida)	U. Yusupov, Qimmatbaho va rangli metallar sohasini rivojlantirish boshqarmasi, "Olmaliq KMK" AJ, "Navoiy KMK" AJ
15.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2025-2027-yillarda qimmatbaho metallarni ishlab chiqarish va topshirish bo'yicha davlat buyurtmasi to'g'risida"gi farmoyishida belgilangan maqsadli ko'rsatkichlarning bajarilishini tahlil qilish hamda rahbariyatga kiritish.	har oy	U. Yusupov, Qimmatbaho va rangli metallar sohasini rivojlantirish boshqarmasi
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining yaqin muddatga va uzoq istiqbolga mo'ljallangan harakatlar dasturini amalga oshirishga oid ustuvor vazifalar			
16.	"Yoshlik-I" konini o'zlashtirish" (I bosqich, birinchi navbat) investitsiya loyihasi doirasida "Yoshlik-I" koni hamda 3-son mis boyitish fabrikasini ishga tushirishda amalga oshirilayotgan ishlar holatini maqsadli o'rganish.	I yarim yil	U. Yusupov, Qimmatbaho va rangli metallar sohasini rivojlantirish boshqarmasi, "Olmaliq KMK" AJ
17.	Yer qa'rini geologik jihatdan o'rganish, undan foydalanish va muhofaza qilish sohasidagi yo'riqnomalar va uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqish, ularni Davlat zaxiralari komissiyasi ekspertizasidan o'tkazish va tasdiqlash.	I yarim yil	R. Yusupov, Foydali qazilmalar zaxiralari bo'limi "Mineral resurslar instituti" DM

T/r	Ustuvor vazifalar O'rganiladigan masalalar mavzusi	Ijro muddati	Mas'ullar
18.	Istiqbolli maydonlarga xorijiy kompaniyalarni jalb qilish maqsadida O'zbekistonda va xorijiy davlatlarda "Road Show"lar tashkil etish.	I yarim yil	F. Xamidova, Investitsiyalar va strategik rivojlantirish departamenti, Investitsiyalarni muvofiqlashtirish boshqarmasi
19.	2026-yilga mo'ljallangan investitsiya dasturi doirasida investitsiyalarni o'zlashtirish prognoz ko'rsatkichlarini bajarilishi to'g'risida tahliliy materiallar tayyorlash.	har chorak	F. Xamidova, U. Yusupov, R. Yusupov, Investitsiyalar va strategik rivojlantirish departamenti, Investitsiyalarni muvofiqlashtirish boshqarmasi
20.	2026-yil investitsiya dasturi ijrosini amalga oshirish, 1 mlrd dollar xorijiy investitsiyalar mablag'larini jalb qilish bo'yicha ishlarni tashkil etish va muvofiqlashtirish.	har chorak	F. Xamidova, Investitsiyalar va strategik rivojlantirish departamenti, Investitsiyalarni muvofiqlashtirish boshqarmasi
21.	Hududlarda mavjud mineral xomashyo resurslardan samarali foydalanish maqsadida istiqbolli maydonlarda qimmatbaho, rangli va noyob metallarga geologiya-qidiruv ishlarini amalga oshirish uchun xorijiy kompaniyalarni jalb qilish.	har chorak	F. Xamidova, Investitsiyalar va strategik rivojlantirish departamenti, Investitsiyalarni muvofiqlashtirish boshqarmasi
22.	"Navoiy KMK" AJ va "Olmaliq KMK" AJlarning qimmatbaho va rangli metallar ishlab chiqarish prognoz ko'rsatkichlarini bajarilish holatini joylarga chiqqan holda maqsadli o'rganish hamda rahbariyatga kiritish.	har oy	U. Yusupov, Qimmatbaho va rangli metallar sohasini rivojlantirish boshqarmasi
23.	Mis ishlab chiqarish hajmini 3,5 baravarga, oltin qazib olish hajmini 1,5 baravarga, kumush va uran tayyorlash hajmini 3 baravarga oshirishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish.	2026-yil yanvar-iyun	U. Yusupov, Qimmatbaho va rangli metallar sohasini rivojlantirish boshqarmasi,

T/r	Ustuvor vazifalar O'rganiladigan masalalar mavzusi	Ijro muddati	Mas'ullar
			Uran va noyob metallar sohasini rivojlantirish va mahalliyashtirish boshqarmasi, "Olmaliq KMK" AJ, "Navoiy KMK" AJ, "Navoiyuran" AJ,
24.	Olmaliqda misni boyitish va eritish korxonalarini, Ohangaronda misni qayta ishlash klasterini, Tebinbuloq va G'allaorolda temir ishlab chiqarish majmualarini 2026-2028-yillarda foydalanishga topshirish amaliy choralarini ko'rish.	2026-yil yanvar-iyun	F. Xamidova, U. Yusupov, Investitsiyalar va strategik rivojlantirish departamenti, Xalqaro hamkorlik va strategik rivojlantirish boshqarmasi, Qora metallurgiya va ko'mir sanoatini rivojlantirish boshqarmasi, "Olmaliq KMK" AJ
II. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, qarorlari, farmoyishlari, bayonlari va Hukumat qarorlari, farmoyishlari, bayonlari bilan yuklatilgan vazifalar ijrosini maqsadli o'rganish			
25.	Mahalliyashtirish, tarmoqlararo kooperatsiya aloqalarini, shu bilan birga eksportni rivojlantirish maqsadida tashkil etiladigan hududiy hamda xorijiy ko'rgazmalarda vazirlik tizimidagi korxonalar ishtirokini ta'minlash.	I yarim yil	U. Yusupov, Uran va noyob metallar sohasini rivojlantirish va mahalliyashtirish boshqarmasi
26.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-iyundagi "Davlat fuqarolik xizmatini yangi yondashuvlar asosida tashkil etish hamda professional va natijadorlikka yo'naltirilgan davlat xizmatchilari korpusini shakllantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-95-son Farmonida Kon-geologiya vazirligiga belgilangan topshiriqlar ijrosini ta'minlash.	I yarim yil	M. Pirojkov, Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi, Ishlarni boshqarish bo'limi, Yuridik bo'lim, Regional va rudali geologiya bo'limi, Uran zaxiralarini va qazib

T/r	Ustuvor vazifalar O'rganiladigan masalalar mavzusi	Ijro muddati	Mas'ullar
			olishni rivojlantirish bo'limi, Geologiyani moliyalashtirish va texnik siyosat boshqarmasi, “Tog'-kon va geologiya sohasi xodimlari malakasini oshirish instituti” DM
27.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.01.2022-yildagi PQ-81-son qarori talablariga muvofiq vazirlikning korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholashga oid beshta yo'nalish bo'yicha belgilangan indikatorlar bo'yicha hujjatlarni tayyorlash va “E-Anticor.uz” elektron platformasiga joylashtirish.	I yarim yillik	M. Pirojkov, Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'limi
28.	“Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida”gi Qonun talablariga muvofiq vazirlik xodimlarida manfaatlar to'qnashuvini oldini olish va aniqlash, bartaraf etish hamda tartibga solish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish.	I yarim yillik	M. Pirojkov, Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'limi
29.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PQ-240-son qarori talablariga muvofiq Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligining korrupsiogen xavf-xatarlar xaritasini tuzish orqali korrupsiogen omillarga “tashxis qo'yish” va uni oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish.	I yarim yillik	M. Pirojkov, Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'limi
30.	2026-yilga mo'ljallangan investitsiya dasturi doirasida investitsiyalarni o'zlashtirish prognoz ko'rsatkichlarini bajarilishi to'g'risida tahliliy materiallar tayyorlash va rahbariyatga kiritish.	har chorak	U. Yusupov, Investitsiyalar va strategik rivojlantirish departamenti,
31.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-apreldagi “2024-2033-yillarda uglevodorod xomashyosi zaxiralarini ko'paytirishga qaratilgan geologiya-qidiruv ishlarining maqsadli dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 199-son qarorida belgilangan topshiriqlar ijrosi bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni maqsadli o'rganish.	har chorak	R. Yusupov, Neft va gaz geologiyasi bo'limi, “O'zbekgeofizika” AJ
32.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sanoat uchun muhim minerallar xomashyo bazasini shakllantirish va ishlab chiqarishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 2024-yil 20-maydagi PQ-182-son qarorida belgilangan ustuvor vazifalarning amalga oshirilish holatini maqsadli o'rganish.	har chorak	U. Yusupov, Uran va noyob metallar sohasini rivojlantirish va mahalliyashtirish boshqarmasi
33.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-iyuldagi “2022–2030-yillarda “Navoiyuran” davlat korxonasida uranni qazib olish, qayta ishlash hajmlarini oshirish hamda uni transformatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-319-son qarori bilan belgilangan vazifalar holatini maqsadli o'rganish.	har chorak	U. Yusupov, Uran va noyob metallar sohasini rivojlantirish va mahalliyashtirish boshqarmasi

T/r	Ustuvor vazifalar O'rganiladigan masalalar mavzusi	Ijro muddati	Mas'ullar
34.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2025–2026-yillarda sanoat uchun muhim minerallar xomashyosi bazasini kengaytirish va ishlab chiqarishni jadallashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" 2025-yil 28-martdagi PQ-128-son qarorida belgilangan ustuvor vazifalarning amalga oshirilish holatini maqsadli o'rganish.	har chorak	U. Yusupov, Uran va noyob metallar sohasini rivojlantirish va mahalliyashtirish boshqarmasi, "O'zbekiston texnologik metallar kombinati" AJ
35.	2026-yilgi mineral xomashyo bazasini rivojlantirish davlat dasturi doirasida foydali qazilmalarning zaxira va resurslarini ko'paytirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni maqsadli o'rganish.	2026-yil yanvar-iyun	R. Yusupov, Mineral xomashyo bazasini rivojlantirish boshqarmasi, Geologiya dasturini shakllantirish bo'limi
36.	Tog'-kon sanoati va metallurgiya korxonalarida mahalliyashtirish va sanoat kooperasiyasini kengaytirish dasturi doirasida 2026-yil bo'yicha belgilangan reja ko'rsatkichlarning ijrosi to'g'risidagi tahliliy ma'lumotlarni tayyorlash va rahbariyatga kiritish.	2026-yil aprel	U. Yusupov, Mahalliyashtirish, tarmoqlararo kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish bo'limi, Tog'-kon sanoatida mahalliyashtirish va sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish ilmiy-amaliy markazi
37.	Tog'-kon sanoati va geologiya sohasidagi davlat xizmatlarini bosqichma-bosqich raqamli ko'rinishga o'tkazish.	2026-yil iyun	F. Xamidova, Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish bo'limi
III. Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligida amalga oshirilayotgan o'zgarishlarni ommaga keng yoritish			
38.	Joylarga chiqqan holda, muntazam ravishda aholi bilan uchrashuvlar o'tkazish, suv resurslaridan samarasiz foydalanish oqibatlarini tushuntirish.	har oy	R. Yusupov, Gidrogeologiya, muhandislik geologiyasi va geoekologiya bo'limi, "O'zbekgidrogeologiya" DM

T/r	Ustuvor vazifalar O'rganiladigan masalalar mavzusi	Ijro muddati	Mas'ullar
39.	“O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Yoshlarni zamonaviy kasb-hunarga o‘rgatish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturini keng yoritish yuzasidan tog‘-ko‘kon sanoati va geologiya sohalariga oid yangilik va ma’lumotlarni ommaga keng targ‘ib qilish bo‘yicha tasdiqlangan media-rejaga asosan targ‘ibot ishlari doirasida ommaviy axborot vositalari orqali matbuot anjumanlari, press-turlar hamda brifinglar o‘tkazilishini ta’minlash. Shuningdek, Tog‘-ko‘kon sanoati va geologiya vazirligi rasmiy veb-saytini takomillashtirib yangilab borish hamda ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalar, OAV va boshqa axborot resurslari orqali muntazam, to‘liq va tezkor ravishda axborot taqdim etib borish.	2026-yil yanvar-iyun	Axborot xizmati bo‘limi, Tegishli boshqarma va bo‘limlar
40.	Yosh kadrlarni geologiya va konchilik sohalarida zamonaviy ilmiy innovatsion tadqiqot usullarini o‘rganish uchun xorijiy ilg‘or tashkilot va oliy ta’lim muassasalariga stajirovka va malaka oshirishga yuborish.	2026-yil aprel	U. Yusupov, Innovatsiyalar, fan va ta’lim bo‘limi, “Geologiya fanlari universiteti” DM, “Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti” DM, “MISiS”ning Olmaliq shahridagi filiali
41.	2026-yil davomida xorijiy investitsiyalar, grant va beg‘araz ko‘mak jalb etish ishlarini jadallashtirish, xorijiy grant tanlovlarida qatnashish uchun loyihalar portfelini shakllantirish.	2026-yil may	U. Yusupov, Innovatsiyalar, fan va ta’lim bo‘limi, “Geologiya fanlari universiteti” DM, “Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti” DM, “MISiS”ning Olmaliq shahridagi filiali